

Harakter

Andijon davlat Pedagogika instituti Tabiiy fanlar fakulteti Biologiya yo'nalishi
1-bosqich 102-guruh talabalari
Sheraliyev Anvarjon Rasuljon o'gli
Zokirjonova Madinabonu Baxtiyorjon qizi
Turg'unboeva Viloyatxon Murodjon qizi

Annotatsiya: Ushbu maqolada harakterning mohiyati, uning shakllanish omillari va inson hayotidagi o'rnini o'rganish to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan o'tilgan. Mazkur mavzuda harakterning psixologik asoslari, uning tipologiyasi va shakllanish jarayonlari keng tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida shaxsiy misollar va ilmiy manbalardan foydalanilib, harakterni o'zgartirish va rivojlantirish yo'llari ham ko'rib chiqiladi. Mavzu insonni chuqur tushunish, o'zini tarbiyalash va maqsad sari intilishda muhim ahamiyatga ega.

Abstract: This article presents information on the study of the essence of character, the factors of its formation and its place in human life. This topic provides a comprehensive analysis of the psychological foundations of character, its typology and formation processes. During the study, personal examples and scientific sources are used, and ways to change and develop character are also considered. The topic is important for a deep understanding of a person, self-education and striving for goals.

Аннотация: В данной статье представлена информация о сущности характера, факторах его формирования и изучении его места в жизни человека. В этой теме подробно анализируются психологические основы характера, его типология и процессы формирования. В ходе исследования используются личные примеры и научные источники, а также рассматриваются пути изменения и развития характера. Тема важна для глубокого понимания человека, самообразования и стремления к цели.

Kalit so'zlar: Shaxsiyat, irodali, qobiliyat, temperament, odatiy xulq-atvor, pozitiv karakter, negativ karakter, xulq-atvor shakllanishi, motivatsiya, axloqiy qadriyatlar, o'zini anglash, ndividual xususiyatlar, jamoaviy munosabatlar, o'ziga ishonch, sabrlik, mas'uliyat, intizom, halollik, tashabbuskorlik, shaxsiy rivojlanish.

Keywords: Personality, willpower, ability, temperament, habitual behavior, positive character, negative character, behavior formation, motivation, moral values, self-awareness, individual characteristics, team relationships, self-confidence, patience, responsibility, discipline, honesty, initiative, personal development.

Ключевые слова: Личность, воля, способности, темперамент, привычное поведение, положительный характер, отрицательный характер, формирование поведения, мотивация, моральные ценности, самосознание, индивидуальные особенности, коллективные отношения, уверенность в себе, терпение, ответственность, дисциплинированность, честность, инициативность, личностное развитие.

Harakter – bu insonning ichki va tashqi xulq-atvorini belgilovchi barqaror psixologik xususiyatlar va fazilatlar yig‘indisidir. U shaxsning qanday fikrlashi, his-tuyg‘ularini boshqarishi va muayyan vaziyatlarda qanday munosabatda bo‘lishini aniqlaydi. Karakter insonni boshqalardan ajratib turuvchi individual belgi hisoblanadi va uning shaxsiyatining muhim qismidir. Karakter – shaxsning borliqqa, odamlarga, predmetli faoliyatga hamda o‘z-o‘ziga munosabatini ifodalovchi psixologik, sub'ektiv munosabatlar majmui hisoblanadi.

Munosabatlarning xarakterdagi o‘rni xususida fikrlar ekan, V.S.Merlin ularning mazmunida ikki sohani ajaratadi:

- emosional-kognitiv – borliq muhitning turli tomonlarni shaxs qanday emosional xis qilishi va o‘zida shu olamning emosional manzarasini yaratishi;

- motivasion-irodaviy – ma’lum harakatlar va xulqni amalga oshirishga undovchi kuchlar. Demak, bizning munosabatlarimiz ma’lum ma’no va mazmun kasb etgan munosabatlar bo‘lib, ularning har birida bizning xissiy kechinmalarimiz aks etadi va xarakterimiz namoyon bo‘ladi.

Mashhur rus olimi, psixologiya fanining metodologiyasini yaratgan S.L.Rubinshteyn shaxsning o‘ziga xosligi va xarakterologik tizimda uchta asosiy tuzilmalarni ajratgan. Ularga munosabatlar va yo‘nalish, qobiliyat va xarakter kiradi.

1. Munosabat va yo‘nalish – insonning atrof-muhitga, jamiyatga, o‘ziga va turli hodisalarga nisbatan bildirgan ichki va tashqi qarashlari hamda harakatlarning maqsadga yo‘naltirilgan shakllaridir. Ushbu tushunchalar shaxsning psixologik va ijtimoiy xulq-atvori bilan chambarchas bog‘liqdir

2. Qobiliyat – bu shaxsning muayyan faoliyatni muvaffaqiyatli bajarish uchun zarur bo‘lgan psixologik va fiziologik xususiyatlari yig‘indisidir. Qobiliyat

insonning bilim, ko‘nikma va malakalarini egallashga va ularni qo‘llashga imkon beradi. Har bir insonning qobiliyati o‘ziga xos bo‘lib, ular tug‘ma imkoniyatlar va tajriba asosida shakllanadi va rivojlanadi.

3. **Harakter** – bu insonning barqaror psixologik xususiyatlari va individual xulq-atvorining o‘ziga xos jihatlari majmuasidir. U insonning ichki dunyosini, uning boshqalarga, o‘ziga va hayotiy hodisalarga bo‘lgan munosabatini ifodalaydi. Harakter insonni boshqalardan ajratib turadigan psixologik kko‘rsatkichdi.

Harakterning asosiy xususiyatlariga barqarorlik, Individuallik, ijtimoiylik va holatga moslashuvlar kiradi.

- **Barqarorlik:** Harakter xususiyatlari odatda o‘zgaruvchan bo‘lmaydi, uzoq vaqt davomida bir xil bo‘lib qoladi.
- **Individuallik:** Har bir insonning harakteri o‘ziga xosdir va boshqa kishilarnikidan farq qiladi.
- **Ijtimoiylik:** Harakter ko‘p jihatdan ijtimoiy munosabatlar va atrof-muhit ta‘sirida shakllanadi.
- **Holatga moslashuv:** Harakter insonning turli vaziyatlarga qanday munosabat bildirishini aniqlaydi.

Harakterning tuzilishiga ko‘ra to‘rt xil turi mavjud. Ularga iroda xususiyatlari, hissiy xususiyatlar, aqliy xususiyatlar, axloqiy hususiyatlarni kiritamiz.

- **Iroda xususiyatlari:** Qat‘iyatlilik, jasorat, intizomlilik, sabr-toqat kabi xususiyatlar.
- **Hissiy xususiyatlar:** Mehribonlik, o‘ziga ishonch, qo‘rqoqlik, o‘jarlik.
- **Aqliy xususiyatlar:** Mantiqiy fikrlash, kuzatuvchanlik, qiziquvchanlik.
- **Axloqiy xususiyatlar:** Halollik, adolatparvarlik, mas‘uliyatlilik.

Harakter turlari ikki xil bo‘lib, ularga ijobiy va salbiy harakter turlari kiradi.

- **Ijobiy harakter:** Bu fazilatlar jamiyat va inson uchun foydali bo‘lgan xulq-atvorni ifodalaydi (mas‘uliyatlilik, mehnatsevarlik, samimiylik).
- **Salbiy harakter:** Inson va jamiyatga zarar keltiruvchi yoki noqulay fazilatlar (dangasalik, agressivlik, yolg‘onchilik).

Harakterning temperament bilan bog‘liqlikigi: Karakter ko‘pincha temperamentga asoslanadi, ammo uning xususiyatlari hayotiy tajriba va tarbiya jarayonida shakllanadi.

Harakterni shakllantiruvchi omillarga ijtimoiy muhit, hayotiy tajriba, genetik omillar va madaniyatni kiritishimiz mumkin.

1. Ijtimoiy muhit: Jamiyat, oilaviy tarbiya va do‘stlar ta’siri.
2. Hayotiy tajriba: O‘ziga xos voqealar va holatlar natijasida rivojlanadi.
3. Genetik omillar: Tug‘ma xususiyatlar karakter shakllanishiga ta’sir qiladi.
4. Madaniyat: Shaxsning madaniy qadriyatlari va axloqiy tamoyillari.

Harakterning ahamiyati asosan insonning xulq-atvorini boshqaradi va uning jamiyatdagi rolini belgilaydi. Hayotiy maqsadlarga erishishda va muammolarni hal qilishda yordam beradi. Shaxsning boshqalar bilan o‘zaro munosabatini aniqlaydi.

Harakterni anglash va rivojlantirish insonning o‘ziga va boshqalarga nisbatan samarali munosabatini shakllantirishda muhimdir. Karakter xususiyatlari kelib chiqishining fiziologik sharoitlaridan biri – bu ko‘chish mexanizmi asosida turli dinamik stereotiplarning hosil bo‘lishidir. Temperament tipi karakterning individual o‘ziga xos xususiyatlarining paydo bo‘lishidagi muhim psixologik sharoitlardan biri. Inson karakterini ayrim xususiyatlarining o‘zaro bog‘liq, bir-biriga tobe yaxlit organizmi uning tuzilmasi (strukturasi) deyiladi. Ruhiiy xususiyatlarning o‘zaro bog‘langan tizim simptomokomplekslar yoki faktorlar deb ataladi. Karakter tuzilishining xususiyatlariga ularning chuqurlik darajasi; faolligi, kuchi; barqarorligi o‘zgarmasligi; ma’lum darajada plastikligi kabilar kiradi. Karakterni tashkil qiluvchi xususiyatlar uning xislatlari deb nomlanib, ma’naviy va irodaviy turkumlardan iborat. Xususiyat tug‘ma, o‘zgarmaydigan bo‘lmaydi, shuning uchun u insonning turmush sharoitiga bog‘liq holda tarkib topib, o‘zgaruvchan va tarbiyalanuvchandir. Modomiki shunday ekan, psixikaning individual sifat xususiyatlar shaxsning ijtimoiy tipik munosabatlari bilan birga qo‘shilgandagina karakter xislatlarini belgilash imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Karakter irsiyat bilan bevosita aloqa kirmaydi, chunki u ijtimoiy qonuniyatlar bilan belgilanadi. Karakter bilan temperamentning o‘zaro munosabat ularning fiziologik asoslari bilan tavsiflanadi. Karakterning shakllanishida bir necha turli psixologik mexanizmlar mavjud bo‘lib, ularning izida odatlar muhim ahamiyat kasb etadi. Karakter umumbashariy sifatlar bilan cheklanishi qolmasdan, u milliy va etnopsixologik xususiyatlarga ham ega. Shu boisdan o‘zbeklarning o‘ziga xos milliy



xarakter xislatlari mavjud. Istiqloldan keyin milliy ma'naviyat va qadriyatlarning tiklanishi tufayli xarakterning sof fazilatlarini barqarorlashib bormoqda. Xarakterning mohiyati, tuzilishi va turlarini psixologiyaning maxsus sohasi – xarakterologiya o'rganadi. Xarakterning intellektual, hissiy va irodaviy xislatlarini ajratish mumkin. Xarakter deganda, shaxsda muhit va tarbiya ta'siri ostida tarkib topgan va uning irodaviy faolligida, tevarak atrofdagi olamga (boshqa kishilarga, mehnatga, buyumlarga) o'z-o'ziga bo'lgan munosabatlarda namoyon bo'ladigan individual xususiyatlarini tushunamiz.

Harakterning shakllanishi davomida inson o'z ustida ishlash va o'z xulqini tahlil qilish orqali o'zini o'zgartirishga ham qodir. Bu o'zgarishlar asosan o'zini anglash, maqsad qo'yish va doimiy ravishda o'z ustida ishlash orqali amalga oshadi. Harakter shakllanishi inson shaxsiyatining bir qismi bo'lib, u insonning hayotiy tajribalari, oilaviy muhit, tarbiya va tashqi ijtimoiy omillar ta'sirida rivojlanadi

Xulosa: Harakterni tushunish va rivojlantirish shaxsiy rivojlanishning muhim qismidir. Ijobiy qirralarni mustahkamlash va salbiy xususiyatlarni tuzatish orqali inson o'z imkoniyatlarini to'liq ro'yobga chiqarishi va jamiyatda munosib o'rin egallashi mumkin. Harakter – shaxsning kuchli va mustahkam asosi, hayot yo'lida muvaffaqiyatga erishishning kalitidir. Harakter shaxsning boshqalarga, o'ziga va atrof-muhitga bo'lgan munosabatini namoyon etadi, shuningdek, hayotiy maqsadlar, qarorlar va harakatlarga ta'sir qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Goziyev. E "Psixologiya" Toshkent 1994
2. Karimova. V "Psixologiya" Toshkent 2002
3. Goziyev. E "Oliy maktab psixologiyasi" Toshkent 1997
4. G. Allport. Shaxsiyatning psixologik aspektlari (1937) – Harakterning shakllanishi va shaxsiyat tahlili.
5. Z. Freud. Psixoanaliz asoslari (1899) – Harakter shakllanishining chuqur ichki omillarini ochib beradi.
6. L. Vygotskiy. Bolalar psixologiyasi – Shaxsning ijtimoiy rivojlanishi va tarbiya jarayonida harakter shakllanishi.